



"THE ARMED RESISTANCE OF KURBOSHI MADAMINBEK AGAINST THE RED ARMY IN THE ANDIJAN REGION"

Sharofatoy Mannobjonova

Andijan State University

Master's degree Student

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14791978>

ARTICLE INFO

Received: 25th January 2025

Accepted: 30th January 2025

Online: 31st January 2025

KEYWORDS

Red Army, anti-Soviet resistance, national liberation movement, Basmachi insurgency, siege of Andijan, Bolshevik policies, October Revolution.

ABSTRACT

This article analyzes the national liberation struggle against Soviet rule in Turkestan between 1918 and 1920, with a particular focus on the military and strategic operations led by Madaminbek Ahmadbek o'g'li. It examines the siege of Andijan, during which independence fighters placed the Red Army in a critical position, highlighting the broader resistance against Bolshevik consolidation of power. The study contextualizes these events within the framework of anti-colonial movements, armed resistance, and the ideological contestations following the October Revolution.

QO'RBOSHI MADAMINBEKNING ANDIJON HUDUDLARIDA QIZIL ARMIYAGA QARSHI OLIB BORGAN KURASHI

Mannobjonova Sharofatoy

Andijon davlat universiteti

Magistrant

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14791978>

ARTICLE INFO

Received: 25th January 2025

Accepted: 30th January 2025

Online: 31st January 2025

KEYWORDS

Qizil armiya, "bosmachilar", qurolli qarshilik harakati, istiqlolchilik, qamal, bolsheviklar, oktyabr to'ntarilishi.

ABSTRACT

Maqolada 1918-1920 yillarda sovet hokimiyatiga qarshi milliy ozodlik uchun kurashgan Madaminbek Ahmadbek o'g'li boshchiligidagi istiqlolchilarning Andijonni qamal qilib, qizil armiyani tang ahvolga solgani haqidagi ma'lumotlar o'rin olgan.

Turkistonda 1917 yil oktyabr to'ntarishidan keyingi sodir bo'lgan voqealar jarayoni shuni ko'rsatadiki, markaziy sovet hukumati tomonidan Respublika xalqlariga nafaqat mustaqillik, hatto milliy muxtoriyat ham ravo ko'rilmadi. Bu achchiq haqiqatni dastavval barcha Turkiston xalqlari tushunib yetmadi. Buni faqat milliy vatanparvarlar, jadidlar, ayrim rahbar xodimlarga tasavvur qila olgan edilar.



Turkistondagi sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakat Turkiston Muxtoriyati hukumatining tor-mor qilinishi bilan boshlangan. Bu davrda Turkistonda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy vaziyat ozodlik harakatining boshlanishini muqarrar qilib qo'ygandi. Turkistonda sovet hokimiyati o'rnatilgan kundanoq uni boshqarishga mahalliy xalq vakillari jalb qilinmadi, ularning haq-huquqlari inkor qilindi. Uning asrlar davomida shakllangan urf-odatlar, milliy qadriyatlar toptaldi: qozi sudlovi bekor qilindi, vaqf yerlari tortib olindi, jamiyat uchun yot unsurlar deb xalqning ko'plab tabaqa vakillari ta'qib etildi, mulkchilikning barcha shakliga chek qo'yildi.

Sovet hokimiyatiga qarshi Turkiston xalqlarining milliy ozodlik kurashi, yanii qurolli qarshilik harakati dastlabki yillarda Farg'ona vodiysida kuchli tus oldi. Buning sababi bolsheviklar tomonidan qizil armiya va dashnoqlarning jangovar qismlari yordamida 1918 yil 21-22 fevralda Turkiston Muxtoriyatining qonga botirib ag'darilishi edi[1.68]. Qo'qonda misli ko'rilmagan qirg'inning amalga oshirilishi bo'ldi.

XX asrning 20-yillarida Markaziy Osiyodagi vaziyat qo'rboshilarning sovet bosqinchilariga qarshi milliy-ozodlik kurashi bilan izohlansada, sovet adabiyotlari esa ushbu harakatlarni "bosmachilik" deya tarix zarvaraqlarida qoralaganlar. Ushbu milliy-ozodlik kurashlarining boshida uzoqni ko'ra biladigan va o'z ortidan minglab insonlarni ergashtiraoladigan qobiliyatli kishilar turgan. Shulardan biri Madaminbek (Muhammadaminbek) qo'rboshi edi. Madaminbekning asl ismi Muhammad Aminbek bo'lib, u 1892 yil Marg'ilon yaqinidagi So'kchilik qishlog'ida (hozirgi Toshloq tumanida) o'rtahol Ahmadbek oilasida tug'ilgan. Madaminbek 23 yoshida 30 ming navkar to'plashga erishgan. 33 yil davomida qizil armiyaga qarshi kurashgan, 1920 yil mayida shahid ketgan[2.147]

1919- yil sentabrda Madaminbek va uning ittifoqchisi Monstrov Andijonni qamal qildilar. Andijon Madaminbek uchun strategik ahamiyatga ega edi chunki uning qo'shinlari joylashgan Jalolobod va O'sh shaharlariga yaqinligi qo'shinni oziq - ovqat bilan qulay ta'minlash imkonini yaratardi. Shuningdek, Andijon egallansa Farg'ona vodiysida sho'rolarning ag'darilishi oson kechardi va asosiysi bu yerdan o'tgan temiryo'l bilan Madaminbekka qarashli Marg'ilon shahrini bog'lash mumkin edi[2.147].

Sovet hokimiyati bu hujumdan xabardor edi va butun qo'shin Madaminbekka qarshi safarbar etildi va hujumga qarshi qat'iy choralarni ko'ra boshladi. 1919-yil 4-avgustdayoq Andijon uyezd-shahar partiya qo'mitasi raisi G.M.Bildin, Ijroqo'm raisi I.G.Smirnov, garnizon boshlig'I V.N.Sidorov, siyosiy komissarning Farg'ona fronti qo'mondoni M.V.Safonovga birgalikda yozgan ma'ruzanomasida Andijonga birlashgan katta kuchning hujumi tayyorlanayotgani, shu bois bunga qarshi zarba berish uchun maxfiy kuchaytirilgan tayyorgarlik olib borish kerakligi aytilgan edi. Uezd-shahar partiya ko'mitasining 29-avgustdagi qaroriga ko'ra barcha kommunistlar harbiy ishga safarbar qilindi. Mahalliy millat kommunistlari eski shaharda rus, eron, tatar, yahudiy va boshqamillat vakillari yangi shaharda harbiy mashq o'tay boshladilar. 1919-yil 3-sentabrda uyezd-shahar partiya qo'mitasi «partiya drujinasi to'g'risida»gi masalani ko'rib chiqdi va tegishli qaror qabul qildi. Qizil gvardiya shtabi va harbiy kollegiya 5-sentabr kuni "Qizil gvardiya" tashkil etishga qaror qildi. Shaharni mudofaa etish uchun G.M. Bildin raisligida (a'zolari V.N.Sidorov, M.G.Shanin, N.Aliyev, S.I.Qo'ziahmedov, A.Husanboyev) mudofaa Shtabi tuzildi. Kommunistlardan iborat qurolli partiya drujinasi tashkil topadi. Shaharni qamal qilish



chog'ida Andijonda shahar himoyachilari soni 1565 taga yetgandi. Ular ixtiyorida 2 ta to'p, 3 ta pulemyot, 2 ta bombamyot bor edi. Mudofaa shtabi qarori bilan shahar beshta jangovar hududga bo'lindi[3.38].

Madaminbek qo'shinlari Andijonning Eski shaharini hech qanday qarshiliksiz ishg'ol qiladi. Andijonlik ko'pgina yigitlar Madaminbek yigitlariga qo'shildi. Farg'ona fronti qo'mondonligi ham Andijonning yangi shahrini himoya qilish uchun shoshilinch choralar ko'rdi. Qo'qondan Andijonga 7 vagon askar yuborildi. 8 kun davomida shiddatli jang tinmadi. Farg'ona fronti qo'mondoni M.V.Safonov o'z qo'shini bilan Andijon sho'ro hukumatiga yordamga keldi. I.I.Shishkanov otryadi ham yordamga shoshildi. Ginzburg nomli Qozon o'qchi polki A.P.Sokolov qo'mondonligida, III kommunistik internasional nomli otryad E.F.Kujelo boshchiligida Andijonga kirib keldi. Shundan keyin Andijon garnizoni 3116 jangchi, 12 to'p, 3 tabombomyol, 57 ta pulemyotga ega bo'ldi[3.38].

Yana boshqa mahalliy otryadlar ham kelib qo'shildi. Har ikki tarafdin qurbonlar ko'p bo'ldi. Jangda Andijon uyezd-shahar partiya qo'mitasi raisi, shahar mudofaa shtabi raisi G.M.Bildin, Farg'ona fronti g'arbiy inqilobiy kengash raisi D.I.Spaskbovva boshqa ko'plab qizil armiyachilar, qizil gvardiyachilar halok bo'ldilar. Andijon qal'asi uchun kuchli jang ketayotgan bir paytda K.Monstrovning «Dehqon armiyasidagi ikkita polkning hech qanday ogohlantirishsiz o'z pozitsiyalarini tashlab, noma'lum tomonga qochib ketishi qizil askarlar uchun qulay vaziyat tug'dirdi. Natijada front chizig'ida bo'shliq paydo bo'ldi[2.148].

Qizil askarlar undan ustalik bilan foydalandilar. 24-sentabr kuni Qizillarning birlashgan kuchlari Eski shaharni yorib o'tdilar. Shiddatli janglar yuz berdi. Har bir ko'cha, har bir uy uchun jang qilindi. Eski shahar yong'in bilan qopladi. Yuzlab ayollar, keksalar. bolalar qurbon bo'ldi. Madaminbek qo'shinlariga ikki tomondan ham qal'a ichkarisidan, ham tashqarisidan bostirib kelayotgan qizil otryadlar zarba bera boshlaydi. Ikki o't o'rtasida qolgan Madaminbek chekinishga majbur bo'ldi. Qolaversa, Omonpolvon, Shermuhammadbek. Xolxo'ja otryadlarining vaqtida yordamga kelmagani ham mag'lubiyat sabablaridan edi[4.342]. Qo'rboshilardan Akbarali va Mahkamhojilarning o'sha hayot-mamot kurashlari chog'ida sotqinlik qilib sho'ro tomoniga o'tganlari ham Madaminbekni ruhsizlantirib yubordi.

Andijondan chekinishga majbur bo'lgan Madaminbek O'sh sari yuzlandi. Ammo bu yerda ham xiyonat yuz berib, shahar hokimlari sotqinlik qildilar. Madaminbek qo'shiniga qarshi o'qlar yog'dirildi. Orqadan esa A.P.Sokolovning Qozon polki, E.F.Kujeloning otliq haynalmilalchi polki quvib kelardi. Shunda Madaminbek Jalolobodga qarab chekindi. Yo'lda «Dehqonlar armiya» sining katta qismi Madaminbek qo'shinidan ajralib qochib, har tarafga tarqalib ketdi. Qonli janglar yuz berdi. Bu jangda qizil askarlarning qo'li baland kelib. 30-sentabrda Jalolobodda Sho'ro hokimiyati tiklandi. Madaminbek Pomir tog'lari tomon chekinishga majbur bo'ldi[4.343].

Faqat 1924 yildagina Farg'ona vodiysida «Bosmachilik» harakati bartaraf etildi. Bu yerda shuni aytish lozimki aslida u 1918 yil fevral oyida bolsheviklarning Turkiston Muxtoriyatiga qarshi boshlagan urushi jarayonida yuzaga kelgan edi. Mana shu vaqtdan boshlangan «bosmachi»lik kurashi keyingi salkam 7 yil (1918—1924) mobaynida davom etdi. Shu yillar orasida ularning soni 70 ming kishidan ortdi[5.290-291].

1919 yilning kech kuziga kelib, Madaminbekning qo'l ostida 30000 ga yaqin yigit qizil armiyaga qarshi janglar olib bordi. Bu paytda Shermuhammadbek qo'l ostida 20000, Katta



Ergash qo'rboshida 8000 askar bo'lgan edi[5.290]. Qurollik qarshilik harakati butun Turkiston o'lkasida bolsheviklarga qarshi ilk bor ko'tarilgan milliy-ozodlik kurashi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Uning ta'sirida mintaqaning boshqa joylarida ozodlik kurashlari yuzaga keldi.

Madaminbek kurashda ko'pgina kishilarni o'z atrofida yig'ib 30 mingdan ortiq kishilik qo'shin tuzaolgan bo'lsa-da boshqa qo'rboshilar bilan yakdillik bo'lmagani uni mag'lubiyatiga sabab bo'lgandi. Uning Andijonni egallab sho'ro hokimiyatini ag'darib mustaqillikka erishishdek buyuk maqsadi ro'yobga chiqmadi. Ushbu davr butun bu millatning bosqinchi sho'rolarga qarshi bir bo'lib kurasholmagani, o'z yetakchilariga xiyonat qilganligi bilan tarixda qoldi. Madaminbekning qobiliyatli yo'l boshchiligi ham ushbu siyosiy vaziyatda samarali natija bermadi o'zaro boshboshdoqlik sho'rolarga qo'l keldi va bir necha o'n yilliklar davom etgan milliy ozodlik kurashi yakuniga yetdi.

Vaziyatga teran nigoh bilan qaralsa milliy ozodlik kurashi butun millat tomonidan qo'llab quvvatlanmasligi, bir necha milliy ozodlik tarafdorlarining mafkuralari bir emasligi va sovetlarning ham jangovor ham moliyaviy jihatdan ustunligi ushbu ozodlik kurashlarining muvaffaqiyatiga to'sqinlik qildi.

Turkiston mintaqasidagi bu harakat O'zbekistonning mustaqillikka erishishi uchun bo'lgan kurashlari bosqichida muhim rol o'ynab, XX asrdagi Vatanimiz tarixining e'tiborga molik sahifalarini tashkil qiladi. Zero, ona-Vatan mustaqilligi uchun bo'lgan janglarda shahid ketgan ota-bobolarimizning xotirasi hech qachon unutilmaydi.

References:

1. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. –Тошкент: Шарқ, 2000.
2. Шамсутдинов Р., Каримов Ш. Ўзбекистон тарихидан материаллар (Учинчи китоб). –Андижон, 2004.
3. Ибодинов А. Қўрбоши Мадаминбек. Тошкент, 1993.
4. Зиёев Ҳ. Ўзбекистон мустақиллик учун курашлар тарихи. Тошкент, 2001.
5. Ўзбекистон тарихи. II жилд (XIX асрнинг II ярми-1989 йил, июнь). –Тошкент: Янги аср авлоди, 2015.